

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ORFOGRAFIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Dilmurod Teshaboyev

Farg'ona davlat universiteti, professor (DSc)

M. Sotvoldiyeva

Farg'ona davlat universiteti, 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik ko'nikmalarni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida orfografik ko'nikmalarning tutgan o'rni asoslab berilgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichida imlo qoidalarini o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarda uchraydigan asosiy orfografik xatolar hamda ularni bartaraf etishning samarali pedagogik yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf ona tili darslarida orfografik savodxonlikni shakllantirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: orfografik ko'nikma, boshlang'ich sinf, yozma nutq, imlo qoidalari, savodxonlik, pedagogik yondashuv, fonetik tahlil, grammatik malaka, xatolar tahlili, ta'lim samaradorligi.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ОРФОГРАФИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Дилмурод Тешабоев

Ферганский государственный университет, профессор (DSc)

М. Сотволдиева

Ферганский государственный университет, студентка 4 курса

Аннотация

В статье теоретически и практически анализируются особенности формирования орфографических навыков у учащихся начальных классов. Обоснована роль орфографических навыков в развитии письменной речи с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся. Рассматриваются основные орфографические ошибки, возникающие в начальном обучении, а также эффективные педагогические способы их устранения. Результаты исследования могут быть использованы в процессе обучения родному языку в начальных классах.

Ключевые слова: орфографическая грамотность, начальная школа, письменная речь, правила правописания, педагогические основы, фонетический анализ, грамматические навыки, анализ ошибок, лингвистическая компетенция, эффективность обучения.

SPECIFIC ASPECTS OF THE FORMATION OF SPELLING SKILLS IN PRIMARY GRADE STUDENTS

Dilmurod Teshaboyev

Fergana State University, Professor (DSc)

M. Sotvoldiyeva

Fergana State University, 4th-year Student

Abstract

This article provides a theoretical and practical analysis of the specific features of forming orthographic skills in primary school students. The role of orthographic skills in the development of written speech is substantiated, taking into account the age and psychological characteristics of learners. The main types of spelling errors encountered in primary education and effective pedagogical methods for eliminating them are discussed. The results of the study contribute to improving the teaching of spelling literacy in primary school language lessons.

Keywords: orthographic literacy, primary school, written speech, spelling rules, pedagogical foundations, phonetic analysis, grammatical skills, error analysis, linguistic competence, educational effectiveness.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jamiyatda savodli, mustaqil fikrlay oladigan hamda yozma nutqini to'g'ri ifodalaydigan shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o'quvchilarda o'qish, yozish va imlo ko'nikmalarining poydevori yaratiladi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinfda orfografik ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, yuqori sinflarda ham o'quvchilar yozma ishlarida ko'plab imlo xatolariga yo'l qo'yadilar. Bu holat o'quvchilarning fikrini yozma shaklda aniq, mantiqiy va izchil bayon etishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik ko'nikmalarni shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganish dolzarb muammo hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi shundayki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik ko'nikmalarni shakllantirishning o'ziga xos pedagogik jihatlarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo'llarini asoslashdan iborat. Orfografik ko'nikma tushunchasining mazmunini aniqlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, o'quvchilarda uchraydigan orfografik xatolarni aniqlash va orfografik ko'nikmalarni shakllantirishning samarali pedagogik yo'llarini asoslash bular tadqiqotning vazifalari hisoblanadi. Tadqiqot metodlari: pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va metodik tajriba usullaridan foydalanildi.

Orfografik ko'nikma — bu o'quvchilarning so'z va gaplarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq to'g'ri yozish, yozma nutqda xatolarga yo'l qo'ymaslik hamda imlo qoidalarini ongli ravishda qo'llay olish malakasidir. Ushbu ko'nikma yozma nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfda orfografik ko'nikmalar fonetik, grammatik va leksik bilimlar asosida shakllanadi. O'quvchilar tovush va harf o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi, so'zlarning tuzilishini tahlil qiladi va imlo qoidalarini amaliy mashqlar orqali mustahkamlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'rgazmalilik, takrorlash va amaliy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ularning diqqat va xotirasi barqaror emasligi sababli yozma nutqni egallash jarayonida turli xatolarga yo'l qo'yiladi. Shu bois imlo qoidalarini o'rgatishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish, qoidalarni soddalashtirilgan va tushunarli shaklda berish muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda orfografik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari:

1.1-sinfda tovush va harf munosabatlari, bo'g'inlab yozish ko'nikmalari shakllantiriladi.

2.2-sinfda qo'shimchalarning yozilishi va so'z tuzilishiga oid ko'nikmalar mustahkamlanadi.

3. 3-sinfda so'zlarni qo'shib va ajratib yozish qoidalari o'zlashtiriladi.

4. 4-sinfda esa murakkab imlo qoidalari va yozma nutqning ravonligi rivojlantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovushlarni farqlay olmaslik, qo'shimchalarning

noto'g'ri yozilishi, so'zlarni qo'shib yoki ajratib yozish kabi xatolar ko'p uchraydi. Ushbu xatolarni bartaraf etishda muntazam mashqlar, izohli diktantlar va tahliliy ishlar muhim ahamiyatga ega.

L.S.Vygotskiy yozma nutq rivojini tafakkur taraqqiyoti bilan bog'laydi. A.A.Leontyev esa imlo qoidalarini ongli o'zlashtirish yozma savodxonlikni rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Mahalliy olimlardan X.G'ulomova va S.Matchonovlar boshlang'ich ta'limda mashq va takrorlashning ahamiyatini ilmiy asoslab berganlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda uchraydigan orfografik xatolarning asosiy sabablari fonetik tahlilning yetarli shakllanmaganligi, grammatik bilimlarning mustahkam emasligi hamda imlo qoidalarini mexanik tarzda yod olish bilan bog'liqdir.

Shu bois orfografik ko'nikmalarni shakllantirishda:

- izohli diktant,
- tahliliy yozma ishlar,
- interfaol mashqlar,
- xatolar ustida individual ishlash,
- muntazam takrorlash

kabi metodlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Nazariy manbalar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, imlo qoidalarini ongli ravishda tushuntirish va ularni nutq jarayoni bilan bog'lab o'rgatish o'quvchilarning yozma savodxonligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, orfografik ko'nikmalarni tizimli ravishda shakllantirish natijasida o'quvchilarning yozma ishlarida imlo xatolari kamayadi, yozma nutq ravonligi va aniqligi oshadi. Muntazam mashq va tahliliy ishlardan foydalanilgan sinflarda:

- qo'shimchalarni noto'g'ri yozish holatlari kamaydi,
- so'zlarni qo'shib yoki ajratib yozishdagi xatolar sezilarli darajada qisqardi,
- o'quvchilarning yozma nutq madaniyati yaxshilandi.

Bu esa orfografik ko'nikmalarni shakllantirishda tizimli va ongli yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, tizimli yondashuv va samarali pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan xulosalar boshlang'ich sinf ona tili darslarida orfografik savodxonlikni oshirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilar va talabalar uchun metodik qo'llanma vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent.
2. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 1982.
3. Leontyev A.A. Nutq faoliyati asoslari. – Moskva, 1974.
4. G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.
5. Matchonov S. Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish metodikasi. – Toshkent, 2020.
6. Karimova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
8. Rasulov R. O'zbek tili orfografiyasi va imlo masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2021.